SIRDARYO VILOYATI SIRDARYO TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 28 - mart 112-9-128-Q/22 Sirdaryo tuman hokimligi

Sirdaryo tumani hududidan o‘tuvchi 4H-643 avtomobil yo‘lining 1-2 km oralig‘idagi “Sirdaryo Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi”hududi yonidan o‘tgan qismiga 1.21 yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi 377-son “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2019-yil 9-apreldagi 292-sonli “Yo‘l harakati qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlash, Sirdaryo tuman ichki ishlar boshqarmasining 14.02.2022-yildagi 31/726-sonli va 15.03.2022-yildagi 31/1198-sonli xatlariga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib, **qaror qilaman:**

1. Tuman hokimligida 2022-yil 14-fevral kuni 115-son bilan ro‘yxatga olingan, Sirdaryo tuman ichki ishlar boshqarmasining 14.02.2022-yildagi 31/726-sonli va tuman hokimligida 2022-yil 16-mart kuni 265-son bilan ro‘yxatga olingan, 15.03.2022-yildagi 31/1198-sonli xatlari xati qanoatlantirilsin.

2. Sirdaryo yo‘llardan muntazam foydalanish unitar korxonasi (Sh.Shamsiddinov) va tuman hududiy yo‘llardan foydalanish DUK (B.Bektemirov) belgilangan tartibda quyidagi joyga:

- 4H-643 avtomobil yo‘lining 1-2 km oralig‘idagi “Sirdaryo Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi” hududi yonidan o‘tgan qismiga 1.21 yo‘l belgisini o‘rnatsin.

3. Sirdaryo tumani Ichki ishlar boshqarmasi YHXB (R.To‘rayev) o‘rnatiladigan yo‘l belgilarini tegishli tartibda hisobga olib, yo‘l harakati xavfsizligiga rioya qilinishini nazoratga olsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Berdiyev zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan vaqtdan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **B.Mirzaqulov**